

**ODAM ANATOMIYASIGA OID ATAMALARNI O'RGANISHDA MNEMONITEXNIKA VA  
KALIT SO'ZLAR USULIDAN FOYDALANISH**

**Iskandar Sattibaev,**

Qo'qon universiteti Andijon filiali mustaqil tadqiqotchisi

**Annotasiya:** ushbu maqolada o'zbekzabon talabalrغا anatomiya fanini o'qitishda anatomiya faniga oid atamalarni o'rgatish jarayonida mnemonikaning kalit so'z usulidan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan. «Mnemonika» atamasi va uning ilmiy jihatlariga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mnemonika, anatomiya, kalit so'z, lotin tili, o'zbek tili, yangi pedagogik texnologiyalar.

**Kirish**

Sir emaski, tibbiyot talabalari anatmoniya fanini o'rganish jarayonida katta hajmdagi yangi leksik materiallarni o'zlashtirish zaruratiga duch keladilar. Mazkur holat anatomiya fanini o'rganuvchilar uchun ikkita asosiy muammoni yuzaga keltiradi. Avvalo, ular cheklangan payt oralig'ida salmoqli hajmdagi leksik birlıklarni o'zlashtirishlariga to'g'ri keladi. Keyingi qiyinchilik esa, o'rganilgan leksik materiallarni passiv so'z tarkibidan faol so'z tarkibiga o'tkazib, ularni uzoq muddat xotirada saqlanib qolinishini ta'minlashdan iborat bo'ladi.(Tixonenko, Lazanina, 2018). Shunday ekan, anatomiya fanini o'rganish va unga oid atamalarni o'qitish jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilish uchun inson xotirasi va uning asosiy ishslash mexanizmlarining mushtaraklik jihatlariga e'tibor qaratmoq maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Asosiy qism**

Inson xotirasi juda murakkab tuzilma bo'lib, uning faoliyati turli sathlar va darajalardan iborat. U insonning fiziologik, psixologik, intellektual faoliyat turlarini bevosita nazorat qilib boradi. Biroq, mazkur izlanish doirasida biz uchun 1964- yili P.P. Blonskiy tomonidan taqdim qilingan inson xotirasining strukturaviy tuzilishi nazariyasi qo'l keladi. Bunga sabab – mazkur xotira sathlarining tasnifi inson xotirasining didaktik jarayondagi funksiyalarini ochib beradi.

Ushbu tasnifga ko'ra, xotiraning eng yuqori sathi - *lug'aviy-mantiqiy xotira* bo'lib, u fikr va so'zlarning eslab qolinishiga xizmat qiladi. Zero, inson lisoniy vositalar yordamida fikrlar paydo qiladi va ularni mantiqiy zanjirga tizish orqali eslab qoladi.

*Obrazli xotira* inson tasavvurida hosil bo'lgan yoki uning hayoti davomida ko'rgan kechirgan voqe'lklari jamlanmasi asosida yuzaga keladi. Bunga shaxslar, jismlar, tovushlar, kechinmalar bilan bog'liq xotiralarni misol qilib keltirish mumkin.

*Hissiy xotira* esa inson boshidan kechirgan yoki kechirayotgan emotsiyonal hislar asosida vujudga keluvchi xotira turidir. Odam o'zining ruhiy va aqliy holatidan kelib chiqib, hursandchilik, hafalik, g'azab, taassuf kabi kechinmalarini qayta-qayta eslab, ularni har safar huddi yangidan ro'y berganday his qilishi mumkin.

Xotiraning eng ko'zga tashlangan sathlaridan yana biri bu *hatti-harakatga oid xotiradir*. Inson umri davomida qayta-qayta bajargan jismoniy harakatlari unda mazkur xotira turini

shakllantiradi. Bunga suzish, velosiped minish, yugurish kabi ish-harakatlarni misol qilish mumkin. (Lapp.D. 2003)

Yuqorida ko'rib o'tilgan xotira sathlari shaxslarning umumiy hayotiy faoliyatlarini nazorat qilish va boshqarishga xizmat qiladi. Ahamiyatlisi shundaki, ularning har biri alohida-alohida muhim vazifalariga ega bo'lishiga qaramasdan, o'zaro mushtaraklik asosida inson ongingin umumiy botiniy xotira qatlamin tashkil qilishga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, garchi inson xotirasi uning hayoti davomida yuqorida tushuntirilgan turli xotira "irmoqlari" dan oziqlansa-da, ushbu irmoqlar jamlanib kelib, insondagi umumiy xotira qatlamining yuzaga kelishiga asos vazifasini bajaradi.

Xotira va uni rovijlantirish sohasidagi taniqli mutaxassis Joshua Foyerning ta'kidlashicha, inson bilim olish jarayonida o'rganilayotgan materiallarni oddiy matn yoki tovush shaklida yod olishidan ko'ra, ushbu ma'lumotlarni o'zining tasavvuri, ruhiy kechinmalari yoki hatti-harakatlari bilan uyg'unlashtirilgan holda yodlashi ancha yaxshi samara beradi. Uning taqdim qilgan misoliga ko'ra, odam kitobdan yodlangan matnga qiyoslanganda, tasvirini tomosha qilgan badiiy filmni eslab qolib, hikoya qilib berishi ancha osonroq. Buning sababi esa, juda oddiy: inson ekrandagi badiiy filmni tomosha qilish jarayonida undagi matnli ma'lumotni ***tasvir, ovoz*** va ***film unda uyg'otgan his-tuyg'u/ ruhiy kechinmalar*** bilan qorishgan holda qabul qiladi. Natijada, ko'rilegan filmga oid biror ma'lumot ochiqlanganda, insonda uni tomosha qilish jarayonida paydo bo'lgan his-tuyg'u va tasavvurlar oqimi yangilanadi va ular o'z navbatida filmga aloqador boshqa ma'lumotlarni inson xotirasida jonlanishiga sabab bo'ladi. (Foyer, 2011)

Anatomiya fanini o'rganishda xotiraga tayaniladigan usullar sirasidagi mnemonika/mnemotexnikadan foydalanish leksik materiallarni mexanik yo'l bilan zerikarli tarzda emas, balki insonning aqliy, hissiy, tasavvuriy jarayonlarini jalb qilgan holda mazkur vazifani qiziqarli va hattoki yoqimli tarzda tashkil qilish imkoiyatini beradi. Bu usul o'rganilayotgan yangi bilimlarni samarador va tez o'rganishdan tashqari, odam anatomiyasi fanini boshlang'ich o'rganish bosqichida bo'lgan o'quvchilarda yaxshi natijalar namoyon qilishi isbotlangan. (**Akhter N, Nawshin N, Khatun M, 2021**) Shunisi ahamiyatli, mnemonika o'rganish jarayonida talabaning o'rganilayotgan yangi bilimlar ishtirokida turli his-tuyg'u va tasavvurlar hosil qilishiga alohida urg'u beradi. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim jarayoniga insonning boshqa tuyg'ularini ham jalb qiladi. Natijada, yangi bilimlarni egallash va ularni xotirada saqlash ancha osonlashadi.

Mnemonika texnikalari o'z ichiga turli xil metodikalarni oladi. Ular har xil sohalarga oid bilim va ko'nikmalarini o'rganishga yo'naltirilgan. Biroq, mnemonika usullarida ***kalit so'z*** usuli mavjud bo'lib, u aynan xorijiy tillardagi yangi leksik materiallarni, jumladan, odam anatomiyasiga oid lotincha atamalarni oson o'rganish imkoniyatini beradi. Anari va Sajjadi kabi olimlarning ta'kidlashicha, talabalar tomonidan yangi so'zlarni o'rganishda ***kalit so'z*** usulidan foydalanish semantik ma'lumotlarni qisqa muddatli passiv bilimdan uzoq muddatli aktiv ko'nikmaga aylantirish imkonini beradi. (Anari, Sajjadi. 2) Bundan tashqari, mnemonikaning ***kalit so'z*** usulidan foydalanish o'rganish saviyasi nisbatan past bo'lgan talabalarning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatilgan. (Atkinson, 1975).

**Kalit so'z** usulining ahamiyati haqida fikr yuritar ekanmiz, uni shakllantiruvchi asosiy uchta omilni sanab o'tish maqsadga muvofiqli (Anari, 2015). 1) Qayta tiklash. Bu bosqichda o'quvchi o'rganilayotgan xorijiy tildagi yangi so'zning ohangdoshini o'z ona tili yoki o'ziga yaxshi ma'lum bo'lgan boshqa biror tildagi so'zdan topadi. Mison uchun, lotin tilida **labium** (lab) so'zini o'rganish uchun o'zbekcha **lab** ohangdoshini aniqlaydi. 2) Aloqadorlikni topish. Mazkur bosqichda o'rganuvchi xorijiy tildagi so'z va uning ona tilidagi ohangdoshi orasida mantiqiy-semantic aloqadorlikni topadi. Yuqoridagi misolga murojaat etsak, **labium** (lab) va o'zbekcha **lab** o'rtaisdagi mantiqiy aloqa o'rnatiladi. Masalan, lotin tilida gaplashgan qadimgi Rim fuqarosining **labi** va boshqa bir oddiy odamning **labi**. 3) Xotirada qayta tiklash. Bunda o'rganuvchi ilk ikki bosqichdan kelib chiqib paydo qilgan hissiy xotiralarini o'z ongida qayta tiklab, kerakli ma'lumotni eslaydi. Aytaylik, **labium** so'zini eslash kerak bo'lganda, u o'zbekcha **lab** so'ziga aloqador tasavvurni eslaydi va shu assotsiatsiya asosida kerakli so'zni xotirasida qayta tiklaydi.

Mnemonikaning kalit so'z uslubini anatomiya fanini o'rganuvchi o'zbek o'quvchilarining amaliyotiga tatbiq qiladigan bo'lsak, asosiy ikkita yo'nalish yaqqol ko'zga tashlanadi:

1) Lotin va o'zbek tillarida talaffuzi juda o'xshash yoki bir xil hamda ma'nodosh bo'lgan so'zlar. So'zlarning talaffuz va ma'nolaridagi bir xillik tufayli o'rganuvchi ularni hech qanday qiyinchiliklitsiz o'zlashtira oladi. Mazkur so'zlar sof o'zbekcha bo'lmasa-da, bugungi kunda o'zbek tilining turli sathlarida faol ishlataladi. Buning uchun mazkur so'zlarning ikkala tildagi ro'yxatini tuzub chiqish kifoya qiladi. Eng yaxshisi odam anatomiyasiga oid atamalarni o'rganish jarayonida duch kelingan bunday so'zlarning ro'yxatini tuzib borishdir. (Sattibaev, 2015) Quyida lotin va o'zbek tillarida ohangdosh va ma'nodosh bo'lgan so'zlardan namunalar taqdim etilgan:

#### *Inglizcha - O'zbekcha*

labium – lab

vena – vena (qon tomir)

arteria – arteriya (qon tomir)

nervus – nerv (asab)

2) Keyingi yo'nalishdagi so'zlar ma'no jihatidan bir-biriga umuman yaqin emas. Biroq, ular ohang va talaffuz nuqtai nazaridan bir xil yoki bir-biriga juda yaqin. Bu so'zlar garchi o'zaro hech qanday aloqadorlikka ega bo'lmasalar-da, ularning talaffuzidagi yaqinlik ularni juda oson yodlash imkonini beradi. (Sattibaev, 2015) Shunisi e'tiborliki, anatomiya fani doirasida o'rganilishi lozim bo'lgan so'zlarning aksar qismi aynan shu yo'nalishga taalluqlidir. To'g'ri, lotin tilida ohangdoshlik jihatidan o'zbekcha so'zlarga yaqin yoki ular bilan bir xil leksik birlıklarning alohida ro'yxati mavjud emas. Biroq o'rganuvchi ta'lim jarayonida o'zining ijodiy va izlanuvchanlik qobiliyatlarini ishga solgan holda, o'zi uchun bunday ro'yxatni yaratishi va uni kengaytirib borishi maqsadga muvofiqli. Misollar:

#### *Inglizcha- o'zbekcha*

ago (muqaddam, oldin) – egov

call (chaqirmoq) – qo'l

cause (sabab) – ko'z

many (ko'p) – meni

pull (tortmoq) - pul

**Xulosa**

Inson xotirasi - noyob va o'ta murakkab javhar. U istisnosiz hayotimizning har bir jabhasida ulkan ahamiyat kasb etadi. Zero, nafaqat insonning aqliy faoliyati, balki uning ruhiy olami va jismoniy faoliyati ham xotira bilan chambarchas bog'liq. Garchi inson xotirasi turli sathlarga bo'linsa-da, faqatgina ushbu sathlarning birlashib, mushtaraklikda qo'llanilishigina inson xotirasini takomillashtirish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs jismoniy harakat, ruhiy va hissiy kechinmalar, mantiqiy fikr hamda axborot qabul qilish uchun mas'ul xotira kanallarini o'zaro chambarchas bog'lash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Modomiki anatomiya faniga oid atamalarni o'rganishni xotira ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmas ekan, bu jarayonda xotirani aynan yuqorida ta'kidlangan tarzda bu ishga jalb qilish maqsadga muvofiq. Bu o'z navbatida nafaqat atamalarni oson o'rganish, balki buni qiziqarli va maroqli tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Mnemonika xotirani rivojlantirishning o'ziga xos usuli bo'lib, uning asosiy vazifasi yangi o'rganilayotgan bilimlarni insonning turli ma'lumot qabul qilish kanallari va xotira sathlarini ishga solish orqali o'zlashtirishga yordam berishdan iborat. Kalit so'z usuli esa, mnemonikada alohida o'rin egallab, anatomiyaga oid leksik materiallarni tez va samarali o'zlashtirish imkonini yaratadi.

So'z yakunida shuni ta'kidlab aytish joizki, XXI asr tezkor o'zgarishlar va jadal taraqqiyot davridir. Bu davrda muvaffaqiyatga erisha olish uchun inson ham tezkor, ham samarali harakat qilishi shart. Mnemonika va undagi kalit so'z usuli aynan shu zaruratni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan omildir. Biroq, shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, mnemonika yangi bilimlarni egallahda ishlatish mumkin bo'lgan "sehrli retsept" emas. Uni o'rganish va ilm olish jarayoniga to'g'ri tatbiq qila olish o'quvchi va o'qituvchilardan mehnat va ijodiy yondashuv talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. F. Anari. The magic of mnemonics for vocabulary learning of a second language. International journal of language and linguistics. 2015.
2. R. C. Atkinson. Mnemonics in second language teaching. American Psychologist. 1975.
3. J. Foer. Moonwalking with Einstein: the art and science of remembering everything. Penguin. 2011.
4. Sattibaev. I. So'z yodlash sirlari. Istiqlol Nuri. 2015.
5. Е.А. Калинина. Использование мнемотехники в раннем обучении английскому языку. Саратовский государственный университет.2006.
6. Д. Лапп. Невероятные возможности вашей памяти. Санкт-Петербург 2003.
7. М.А. Тихоненко, Е.В. Лазинина. Мнемоника в рамках тностранныго (английского) языка. Перспективы науки и образования. 2018.5.